Jahon miqyosida farmatsevtika sanoatining barqaror rivojlanishi sog'liqni saqlash tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, tabiiy xomashyo manbalariga asoslangan farmatsevtika mahsulotlari global dori vositalari bozorida asosiy o'rinlarni egallaydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, "... hozirgi kunda dunyo aholisining taxminan 75-80 foizi sog'liqni saqlashda o'simlik xomashyosiga asoslangan dori vositalaridan to'liq yoki qisman foydalanadi. Bu farmatsevtika sanoatida tabiiy komponentlarga asoslangan mahsulotlarga bo'lgan talabning uzoq muddatli va barqaror ekanligini ko'rsatadi"¹. Jahon farmatsevtika bozorida tabiiy kelib chiqishga ega dori vositalariga bo'lgan talabning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 6-7 foizni tashkil etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda biologik faol moddalar asosida ishlab chiqariladigan farmatsevtika mahsulotlari ulushi umumiy dori vositalari ishlab chiqarish hajmining 25-30 foiziga yetgan. Mazkur ko'rsatkichlar farmatsevtika sanoatini barqaror rivojlantirishda xomashyo bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish texnologiyalarini diversifikatsiya qilish zaruratini ilmiy jihatdan dolzarb qilib qo'yimoqda.

Farmatsevtika sanoatining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ushbu yo'nalishning moliyaviy hajmi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni vaqtda jahon bo'yicha tabiiy xomashyoga asoslangan farmatsevtika mahsulotlari bozorining umumiy qiymati 600 milliard AQSh dollaridan ortiq deb baholanib, so'nggi yillarda uning o'sish sur'ati yiliga 15-25 foiz oraliqida shakllanmoqda. Prognoz hisob-kitoblarga ko'ra, mazkur bozor hajmi uzoq muddatli istiqbolda bir necha trillion AQSh dollariga yetishi taxmin qilinmoqda².

Farmatsevtika sanoatini barqaror rivojlantirishning muhim maqsadlaridan biri mintaqalarda iqtisodiy faollikni oshirishdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, farmatsevtika sanoati bilan bog'liq tarmoqlar mintaqalarda bandlik darajasini o'rtacha 8-12 foizga, ayrim hududlarda esa 15 foizgacha oshirish imkonini bermiqda. Bundan tashqari, ushbu soha yalpi hududiy mahsulot hajmiga sezilarli hissa qo'shib, ayrim mintaqalarda uning ulushi 5-7 foiz atrofida shakllanmoqda.

Mintaqalar miqyosida farmatsevtika sanoatining asosiy maqsadi aholining sifatli va hamyonbop dori vositalariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, mahalliy ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Farmatsevtika sanoati orqali bandlik darajasini yaxshilash va eksport salohiyatini oshirish ham ustuvor vazifalar qatoriga kirmiqda. Keltirilgan maqsadlarga erishish uchun hududlarda samarali boshqaruv tizimini shakllantirish juda muhim. Davlat tomonidan investitsiyalarni jalb etish, soliq va moliyaviy rag'batlar yaratish hamda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish farmatsevtika korxonalarining barqaror faoliyat yuritishiga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda farmatsevtika sanoatini barqaror rivojlantirish masalalari iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional yondashuvlar doirasida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganib kelinmoqda. Xususan, mintaqalar miqyosida farmatsevtika sanoatining rivojlanishi hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, aholi salomatligini ta'minlash hamda innovatsion faollikni kuchaytirishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda.

Xorijiy olimlar tadqiqotlarida farmatsevtika sanoatining barqaror rivojlanishi, asosan, innovatsiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D), klasterlashuv jarayonlari hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq holda talqin etiladi. Jumladan, Porter va Ketels (2003) mintaqaviy klasterlar farmatsevtika sanoatida texnologik yangilanishni jadallashtirish va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Shuningdek, OECD va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) hisobotlarida farmatsevtika sanoatini rivojlantirishda barqaror ta'minot zanjirini shakllantirish, ekologik standartlarga rioya etish hamda dori vositalarining iqtisodiy jihatdan qulayligini ta'minlash ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan.

MDH mamlakatlari va rivojlanayotgan davlatlar olimlarining ilmiy ishlarida mintaqaviy farmatsevtika sanoatini rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, soliq imtiyozlari, investitsiya dasturlari, maxsus iqtisodiy zonalar hamda farmatsevtika klasterlarini tashkil etish samarali vositalar sifatida baholanadi (Ivanov, 2018; Karimov, 2021).

O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda farmatsevtika sanoatini rivojlantirish masalalari, asosan, milliy dori xavfsizligini ta'minlash, import o'rnini bosish va mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish nuqtai nazaridan yoritilgan. Xususan, so'nggi yillarda tashkil etilgan "Toshkent Pharma Park" innovatsion klasteri hamda hududiy farmatsevtika zonalarining iqtisodiy samaradorligi alohida tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqilmoqda. Biroq mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mintaqalar miqyosida farmatsevtika sanoatini barqaror rivojlantirishning ustuvor maqsadlari va ularni ta'minlash mexanizmlarini kompleks baholash masalalari yetarlicha chuqur o'rganilmagan.

1 <https://www.worldeggorganisation.com>

2 <https://www.globenewswire.com/news-release/2025/04/29/3070497/0/en/Herbal-Medicine-Market-Size-to-Achieve-USD-580-81-Billion-by-2034-Rising-demand-for-natural-treatments-drives-market-growth.html>

Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilab, mintaqaviy yondashuv asosida farmatsevtika sanoatini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash zaruratini yuzaga keltiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mintaqalar miqyosida farmatsevtika sanoatini barqaror rivojlantirishning ustuvor maqsadlari va ularni ta'minlash mexanizmlarini aniqlash hamda baholashga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi umumilmiy va maxsus metodlar qo'llanildi:

- tahlil va sintez metodlari – farmatsevtika sanoatining mintaqaviy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish hamda ustuvor maqsadlarni aniqlashda;
- taqqoslash metodi – turli mintaqalarda farmatsevtika sanoatining rivojlanish darajasi hamda qo'llanilayotgan mexanizmlarni solishtirishda;
- statistik tahlil – farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar, eksport-import ko'rsatkichlari asosida mintaqaviy rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda;
- tizimli yondashuv – farmatsevtika sanoatini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini o'zaro bog'liq elementlar majmuasi sifatida o'rganishda;
- induktiv va deduktiv xulosa chiqarish metodlari – nazariy xulosalar hamda amaliy takliflarni shakllantirishda.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, Sog'liqni saqlash vazirligi va tegishli idoralar hisobotlari, xalqaro tashkilotlar (WHO, OECD) materiallari, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, mintaqalar miqyosida farmatsevtika sanoatini barqaror rivojlantirishning ustuvor maqsadlari aniqlanib, ularni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Surxondaryo viloyatida farmatsevtika sanoatini barqaror rivojlantirish hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Mahalliy xomashyo resurslariga asoslangan farmatsevtika ishlab chiqarishini rivojlantirish natijasida viloyatda ishlab chiqarish hajmini o'rtacha 1,3–1,5 barobarga oshirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ulushini kengaytirish hamda aholini sifatli dori vositalari bilan ta'minlash darajasini sezilarli yaxshilash imkoniyati mavjud. Natijada, viloyat aholisining sog'lom turmush darajasi va hayot sifati oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatiladi.

Hududiy hokimiyat organlari tomonidan ishlab chiqilgan maqsadli dasturlarni izchil amalga oshirish natijasida viloyat iqtisodiy siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida farmatsevtika sanoatining asosiy ko'rsatkichlarini barqaror rivojlantirishga erishiladi. Keltirilgan manbalar asosida farmatsevtika sanoatining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, aholini sifatli dorivor preparatlar bilan barqaror ta'minlash hamda hududiy bandlikni yaxshilashga qaratilgan mexanizmlar 1-jadvalda tizimli tarzda aks ettirilgan.

1-jadval. Surxondaryo viloyatida farmatsevtika sanoati asosiy ko'rsatkichlarini barqarorlashtirish mexanizmlari³

№	Ustuvor yo'nalishlar	Barqarorlashtirish mexanizmlari	Mas'ul idoralar	Kutilayotgan natijalar
1	<i>Xomashyo resurslarini rivojlantirish</i>	Investitsiya dasturlari; Agro-loyihalarni qo'llab-quvvatlash; Yer va resurslarni boshqarish.	Viloyat hokimiyati, Qishloq xo'jaligi boshqarmasi.	Xomashyo yetishtirish hajmi oshadi; Mahalliy xomashyo ulushi yaxshilanadi; Ish o'rinlari soni ortadi.
2	<i>Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya</i>	Ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini moliyalashtirish; Dorivor preparatlar bo'yicha ilmiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash.	Ilmiy-tadqiqot markazlari, universitetlar.	Yangi dorivor preparatlar soni ortadi; Patentlar soni oshadi; Natijaviy ilmiy maqolalar soni ortadi.
3	<i>Ishlab chiqarish samaradorligi</i>	Zamonaviy texnologiyalar joriy etish; Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari; Sifat nazorati.	Farmatsevtika korxonalari, texnologik markazlar.	Ishlab chiqarish quvvati ortadi; Mehnat unumdorligi yaxshilanadi; Mahsulot sifati indeksi ko'tariladi.

3 Jadval muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.



4	<i>Bozor va eksportni rivojlantirish</i>	Marketing strategiyalari; Sifat sertifikatlarini olish; Eksportni qo'llab-quvvatlash.	Savdo-sanoat palatasi, eksport qo'llab-quvvatlash agentligi.	Mahsulot eksport hajmi ortadi; Mahalliy va xalqaro bozor ulushi ortadi.
5	<i>Bandlik va ijtimoiy samaradorlik</i>	Malakali kadrlarni tayyorlash; Ish o'rinlari yaratish va rivojlantirish.	Bandlik boshqarmasi, oliy ta'lim muassasalari.	Yangi ish o'rinlari soni yaratiladi; Bandlik darajasi yaxshilanadi; Ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichi optimallasadi.

Biz tomonimizdan taklif etilgan Surxondaryo viloyatida farmatsevtika sanoatining asosiy ko'rsatkichlarini barqarorlashtirish mexanizmlari bir nechta ustuvor yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi. Birinchi yo'nalish xomashyo resurslarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u investitsiya dasturlarini kengaytirish, agroloyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda yer va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni o'z ichiga oladi. Mazkur mexanizmlar xomashyo yetishtirish hajmini oshirish, mahalliy resurslardan foydalanish ulushini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mintaqada ekologik barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Ikkinchi yo'nalish ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan. Ilmiy-tadqiqot markazlari va innovatsion loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali yangi dorivor preparatlar yaratish, patentlar olish va ilmiy ishlanmalar ishlab chiqish imkoniyatlari kengaytiriladi. Bu esa farmatsevtika sanoatida texnologik yangilanishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Uchinchi yo'nalish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bog'liq. Zamonaviy texnologiyalar va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etish, sifat nazorati tizimini kuchaytirish orqali ishlab chiqarish quvvatlari va mehnat unumdorligi oshiriladi hamda resurslardan samarali foydalanish asosida barqaror ishlab chiqarish ko'rsatkichlari mustahkamlanadi.

To'rtinchi yo'nalish bozor va eksport salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Marketing strategiyalarini takomillashtirish, sifat sertifikatlarini olish va eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish orqali dorivor mahsulotlarning mahalliy va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligi oshiriladi, eksport hajmi kengayadi va bozor barqarorligi ta'minlanadi.

Beshinchi yo'nalish bandlik va ijtimoiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Malakali kadrlarni tayyorlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining dorivor o'simliklarning foydali xususiyatlari to'g'risidagi xabardorligini oshirish orqali bandlik darajasi, sog'lom turmush tarzi va ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

Hududiy miqyosda farmatsevtika sanoatini boshqarish asosan moliyaviy va iqtisodiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Surxondaryo viloyatida farmatsevtika sanoati faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlarida viloyat hokimligi, mahalliy boshqaruv organlari hamda Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi muhim rol o'ynaydi. Ushbu tashkilotlar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining farmon va qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida olib bormoqda.

Surxondaryo viloyatida farmatsevtika tarmog'i faoliyati jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish maqsadida uzoq muddatga mo'ljallangan maxsus mintaqaviy dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Viloyatda farmatsevtika sohasini yanada rivojlantirish yo'nalishlarini belgilovchi muhim me'yoriy hujjatlardan biri sifatida 2024-yil 10-yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Farmatsevtika tarmog'ini yanada rivojlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-14-son qarorini keltirish mumkin⁴.

Mazkur qarorga muvofiq, Surxondaryo viloyatida farmatsevtika sanoatini rivojlantirish uchun jami 56,2 mln AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb etilishi rejalashtirilgan. Rejalashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi ko'zda tutilib, ularning hajmi 19,5 mln AQSh dollarini tashkil etadi. Bu holat viloyatda faoliyat yuritayotgan farmatsevtika subyektlarining ichki moliyaviy imkoniyatlari nisbatan barqaror ekanligini hamda ularning investitsiya jarayonlarida faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi.

Tijorat banklari kreditlari hisobidan 6,0 mln AQSh dollari miqdorida mablag' jalb qilinishi rejalashtirilgan bo'lib, bu bank-moliya tizimining farmatsevtika sohasini qo'llab-quvvatlashdagi muhim rolini ifodalaydi. Rejaga ko'ra, Surxondaryo viloyatida kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hajmi 9,2 mln AQSh dollarini, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar esa 21,5 mln AQSh dollarini tashkil etishi belgilangan.

Mazkur ko'rsatkichlar viloyatning xorijiy investorlar uchun ma'lum darajada jozibador ekanligini hamda xalqaro moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlari mavjudligini anglatadi. Davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan investitsiyalar rejalashtirilmaganligi viloyatda loyihalar asosan bozor mexanizmlari va xususiy tashabbuslar asosida amalga oshirilishini ko'rsatadi.

4 <https://www.lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Farmatsevtika tarmog'ini yanada rivojlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-14-sonli qarori

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida Surxondaryo viloyatida 530 ta yangi ish o'ri yaratish rejalashtirilgan. Bu esa farmatsevtika sanoatini rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki hududda bandlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, olib borilgan tahlillar natijalariga ko'ra, hududlarda mintaqaviy farmatsevtika sanoatini barqaror rivojlantirish quyidagi mexanizm asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Mazkur mexanizm 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Mintaqalarda farmatsevtika sanoatini barqaror rivojlantirish⁵

Ushbu 1-rasm mintaqaviy farmatsevtika sanoatini barqaror rivojlantirish tizimini tizimli yondashuv asosida aks ettiradi. Rasmda ustuvor maqsadlar, ularni ta'minlash mexanizmlari hamda kutilayotgan natijalar o'zaro uzviy bog'langan zanjir sifatida ifodalangan. Mazkur vizual model orqali mahalliy xomashyo resurslarini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda bozor va eksport imkoniyatlarini kengaytirish yo'nalishlari asosida farmatsevtika sanoatining barqaror rivojlanishiga erishish mexanizmlari yaqqol namoyon bo'ladi.

O'tkazilgan tahlillar natijalariga ko'ra, farmatsevtika sanoatida farmatsevtik mahsulotlarga bo'lgan talab hajmining shakllanishi ko'plab o'zaro bog'liq omillar ta'siri ostida amalga oshadi. Jumladan, ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy, texnogen va demografik omillar aholining salomatlik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, kasalliklar tarkibi hamda ularning hududiy va dinamik xususiyatlarini belgilaydi. Ushbu jarayonlar diagnostika, davolash va dori vositalarini muomalaga chiqarish tizimi orqali farmatsevtika bozorida talab va taklif nisbatining shakllanishiga olib keladi.

Shu munosabat bilan, muallif tomonidan farmatsevtik mahsulotlarga bo'lgan talab hajmining shakllanishi va uni prognozlashga qaratilgan konseptual tizim ishlab chiqilgan. Mazkur tizimda sog'liqni saqlash tizimi subyektlari, dorixonalar, yagona elektron ma'lumotlar bazasi, mahalliy va import dori vositalari hamda tashqi farmatsevtika bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimli yondashuv asosida aks ettirilgan. Taklif etilgan konseptual model farmatsevtika bozorining kon'yunkturasini baholash va aholini zarur dori vositalari bilan barqaror ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan prognozlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Modelda sog'liqni saqlash tizimi doirasida skrining va diagnostika markazlari, shifoxonalar hamda sanatoriyalar orqali kasalliklarni aniqlash, tashxis qo'yish, davolash va davolash natijalarini raqamlashtirish jarayonlari aks ettirilgan. Ushbu jarayonlar dorixonalar faoliyati bilan integratsiyalashib, sotilgan dori vositalari

5 Rasm muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.



ro'yxati va ularning narxlarini haqidagi ma'lumotlarning elektron shaklda shakllanishiga olib keladi. Mazkur axborotlar kundalik yangilanib borilib, respublika farmatsevtik yagona elektron ma'lumotlar bazasida jamlanadi va farmatsevtika bozorini tahlil qilish uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.


Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi tomonidan kasalliklar turlari, zarur dori vositalari ro'yxati, dori vositalari narxlarini hamda ularning hududiy taqsimoti bo'yicha ma'lumotlar qayta ishlanadi. Olingan natijalar farmatsevtik yagona elektron ma'lumotlar bazasida chuqur tahlil qilinib, zarur dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj hajmini aniqlash imkonini beradi. Tashqi muhit omili sifatida jahon farmatsevtika bozori ta'siri ham hisobga olinib, import dori vositalari orqali ichki bozor talabini qondirish yoki mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish yo'nalishlari baholanadi.

Mazkur konseptual yondashuv farmatsevtika bozorining kon'yunkturasini baholash, farmatsevtik mahsulotlarga bo'lgan talabni prognozlash hamda mahalliy ishlab chiqarish va import o'rtasida maqbul nisbatni shakllantirish imkonini yaratadi. Natijada aholini zarur farmatsevtik mahsulotlar bilan barqaror ta'minlashga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish uchun mustahkam metodologik zamin shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Farmatsevtika sanoatini barqaror rivojlantirish uchun hududiy boshqaruvning barcha darajalari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi. Bunda tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy choralarni bir butun tizim sifatida izchil amalga oshirish talab etiladi. Farmatsevtika sohasining asosiy rivojlanish ko'rsatkichlarini o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarni inobatga olgan holda ekonometrik usullar orqali tahlil qilish va oldindan baholash hududiy sanoat imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Jumladan, Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar oqimi, bandlik darajasi va eksport ko'rsatkichlarini modellashtirish hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat tomonidan farmatsevtika sanoatini qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini ilmiy asosda baholab borish sohaning barqaror o'sishini ta'minlaydi. Bularning natijasida viloyatda yangi ish o'rinlari yaratiladi, aholi daromadlari ortadi va hududlarning iqtisodiy barqarorligi mustahkamlanadi.

Tahlillarimiz natijasida farmatsevtika sohasida tizimli islohotlarni amalga oshirib, mamlakatda ushbu tarmoqning rivojlanishini samarali va ishonchli ta'minlash uchun quyidagi bosqichlar (mintaqaviy rivojlantirish mexanizmi) asosida faoliyatni tashkil qilish lozim, deb hisoblaymiz (2-rasm).



2-rasm. Mintaqalar miqyosida farmatsevtika sanoatini rivojlantirishni boshqarishda ekonometrik modellashtirishga asoslangan mexanizm⁶

Biz tomonimizdan taklif qilingan mintaqalar miqyosida farmatsevtika sanoatini rivojlantirishni boshqarishda ekonometrik modellash tirishga asoslangan mexanizm bir necha asosiy bosqichlardan iborat. Birinchi bosqichda ishlab chiqarish, investitsiya, bandlik va eksport ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi. Keyingi bosqichda ushbu ma'lumotlar asosida ekonometrik tahlil va modellar qo'llaniladi. Uchinchi bosqichda rivojlanishga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanadi, jumladan investitsiya hajmi, texnologiyalar darajasi, kadrlar salohiyati, infratuzilma va boshqa shu kabilar. To'rtinchi bosqichda mazkur tahlillar natijalari asosida investitsiyalarni rag'batlantirish, hududiy innovatsion klasterlarni yaratish, malakali kadrlar tayyorlashni sanoat bilan bog'lash, eksport yo'nalishlarini kengaytirish hamda boshqaruv qarorlarida prognoz modellarini qo'llash kabi ilmiy takliflar ishlab chiqiladi. Beshinchi bosqichda ushbu takliflarni amalga oshirish uchun davlat dasturlari, hududiy strategiyalar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari yo'lga qo'yiladi. Oltinchi bosqichda rivojlanish natijalari — ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi, eksport salohiyati va hududiy barqarorlik — baholanadi hamda monitoring qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Farmatsevtika tarmog'ini yanada rivojlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-14-son qarori. 10.01.2024. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6746884?ONDATE=29.01.2025&ONDATE2=05.12.2024&action=compare>
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Rasmiy statistika va matbuot materiallari (hududlar kesimida). URL: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar>
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Surxondaryo viloyati bo'yicha rasmiy ko'rsatkichlar (hududiy ma'lumotlar bo'limi). URL: <https://stat.uz/uz/>
4. World Health Organization (WHO). WHO Traditional Medicine Strategy: 2014–2023. Geneva: WHO, 2013. URL: https://iris.who.int/bitstream/handle/10665/92455/9789241506090_eng.pdf
5. Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990. URL: <https://www.simonandschuster.com/books/The-Competitive-Advantage-of-Nations/Michael-E-Porter/9780684841472>
6. Schumpeter, J. A. The Theory of Economic Development. London: Routledge. URL: <https://www.routledge.com/The-Theory-of-Economic-Development/Schumpeter/p/book/9780367705268>
7. OECD. Collaborative Mechanisms for Sustainable Health Innovation. Paris: OECD Publishing, 2023. URL: https://read.oecd-ilibrary.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2023/03/collaborative-mechanisms-for-sustainable-health-innovation_0e30d7ea/3e8d40dc-en.pdf
8. Gujarati, D. N., Porter, D. C. Basic Econometrics. 5th ed. New York: McGraw-Hill/Irwin, 2009. URL: https://openlibrary.org/works/OL274715W/Basic_econometrics
9. Wooldridge, J. M. Introductory Econometrics: A Modern Approach. Boston: Cengage Learning. URL: <https://www.cengage.com/c/introductory-econometrics-a-modern-approach-7e-wooldridge/9780357758820/>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100